

DIZARTERIYA NUTQ NUQSONLARI

Abdullayeva Diyora Muhammadkarim qizi

Farg'ona viloyati, Qo'shtepa tumani, MFY "Vatan"

Kimyo xalqaro universiteti Namangan viloyati Toshkent filiali

Ta'lim yo'nalishi va guruhi: SPDP yo'nalishi, 22-UB guruhi 4-bosqich talabasi

Ish joyi: *Qo'shtepa tumani 17-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

Lavozimi: Maxsus pedagog o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dizartriya nutq nuqsonining kelib chiqish sabablari, klinik va logopedik xususiyatlari hamda uni bartaraf etishning zamonaviy yondashuvlari yoritilgan. Dizartriya markaziy asab tizimining organik shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan, nutq apparati inervatsiyasining buzilishi bilan tavsiflanadigan murakkab nutq patologiyasi sifatida tahlil qilinadi. Maqolada dizartriya bartaraf etishda tibbiy, psixologik-pedagogik va logopedik yondashuvlarning kompleks qo'llanilishi muhimligi asoslab berilgan. Logopedik ishlarning bosqichlari, artikulyatsion apparatni rivojlantirish, fonematik eshituvni shakllantirish hamda nutqning kommunikativ funksiyasini tiklashga qaratilgan metodlar yoritilgan. Tadqiqot natijalari dizartriya bolalar bilan ishlashda samarali korreksion tizimni tashkil etish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: dizartriya, nutq nuqsonlari, markaziy asab tizimi, nutq apparati inervatsiyasi, artikulyatsion motorika, fonetik-fonematik buzilishlar, logopedik korreksiya, bulbar va psevdobulbar dizartriya, fonematik eshituv, kompleks yondashuv.

Kirish

Ma'lumki, so'nggi yillarda nutqida turli xil nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar sonining ortib borishi jamiyat va ta'lim tizimi oldida turgan muhim muammolardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, markaziy asab tizimining organik shikastlanishi bilan bog'liq bo'lgan nutq buzilishlari orasida dizartriya alohida o'rin egallaydi. Ushbu nutq nuqsoni bolaning nafaqat talaffuz jarayoniga, balki uning umumiy psixik rivojlanishiga, muloqot qobiliyatiga hamda ta'lim jarayoniga moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mening shaxsiy fikrimcha, dizartriya muammosining dolzarbligi faqat nutq buzilishi bilan cheklanmay, balki bolaning ijtimoiy hayotdagi faolligi va shaxs sifatida shakllanishi bilan bevosita bog'liqdir. Darhaqiqat, dizartriya bolalarda nutqning fonetik-fonematik tomonidagi kamchiliklar diqqat, xotira, tafakkur va idrok jarayonlarida ham muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bu esa ularning maktab ta'limini o'zlashtirishida sezilarli to'siqlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Mulohazam shuki, dizartriya o'rganish va uni bartaraf etish jarayoni faqat logopedik ishlar bilangina cheklanmasligi, balki tibbiy, psixologik va pedagogik yondashuvlarning uyg'unligi asosida olib borilishi zarur. Chunki dizartriya murakkab tuzilishga ega bo'lgan nutq buzilishi bo'lib, uning samarali korreksiyasi kompleks va tizimli ishni talab qiladi. Shu bois, ushbu mavzuni ilmiy jihatdan tahlil qilish, dizartriyaning shakllari, namoyon bo'lish xususiyatlari hamda zamonaviy korreksion usullarini yoritish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Dizartriya nutq nuqsoni markaziy asab tizimining organik shikastlanishi natijasida yuzaga kelib, nutq apparati a'zolarining inervatsiyasi buzilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu holatda til, lablar, yumshoq tanglay va hiqildoq muskullarining harakatchanligi cheklanadi, natijada tovushlar talaffuzi qiyinlashadi, nutqning sur'ati, ritmi va ohangdorligi o'zgaradi. Darhaqiqat, dizartriya nafaqat talaffuz kamchiliklari bilan, balki ovoz va nafas buzilishlari, nutqning ifodaliligidagi pasayish bilan ham namoyon bo'ladi.

Dizartriya turli klinik shakllarda namoyon bo'lib, bulbar, psevdobulbar, qobiqli, qobiq osti (ekstrapiramidali) va miyachali dizartriya turlariga ajratiladi. Har bir shakl nutq buzilishining o'ziga xos mexanizmlari va klinik belgilari bilan farqlanadi. Mening shaxsiy fikrimcha, dizartriya shakllarini to'g'ri aniqlash va differensial tashxislash korreksion ishlarning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Chunki noto'g'ri tashxis qo'yilgan holatda olib borilgan logopedik mashg'ulotlar kutilgan natijani bermasligi mumkin. Dizartriya bolalarda ko'pincha nutqning fonetik-fonematik rivojlanmaganligi, artikulyatsion motorikaning sustligi, fonematik eshituvning yetarli shakllanmaganligi kuzatiladi. Bu holatlar bolaning yozma nutqni o'zlashtirishida, tovush-harf munosabatlarini anglashida ham qiyinchiliklar tug'diradi. Mulohazam shuki, dizartriya faqat nutq apparati muammosi emas, balki bolaning umumiy kognitiv rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatuvchi murakkab tizimli buzilishdir. Dizartriya bartaraf etishda kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiy yondashuv nevrolog tomonidan amalga oshirilib, asosiy e'tibor markaziy asab tizimidagi buzilishlarni aniqlash va davolashga qaratiladi. Psixologik-pedagogik ishlar bolaning emotsional holatini barqarorlashtirish, idrok, diqqat va xotirani rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Logopedik ishlar esa individual reja asosida olib borilib, artikulyatsion apparatni rivojlantirish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, fonematik eshituvni shakllantirish hamda nutqning kommunikativ funksiyasini tiklashga yo'naltiriladi.

Logopedik ishlar bosqichma-bosqich tashkil etilib, tayyorgarlik, tovush talaffuzini shakllantirish, nutq ko'nikmalarini mustahkamlash va ikkilamchi buzilishlarning oldini olish bosqichlarini qamrab oladi. Darhaqiqat, uzoq muddatli va muntazam olib borilgan korreksion mashg'ulotlar natijasida dizartriya bolalarda artikulyatsion harakatlar aniqlashadi, nutqning ravonligi va tushunariligi sezilarli darajada yaxshilanadi. Xulosa qilib aytganda, dizartriya nutq nuqsoni bolalar nutq rivojlanishida uchraydigan eng murakkab va

dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu nutq buzilishi bolaning muloqot qobiliyatiga, ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Mening shaxsiy fikrimcha, dizartriya erta aniqlash va vaqtida to’g’ri tashxislash kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan ikkilamchi buzilishlarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kussmaul A. Die Störungen der Sprache. — Leipzig, 1879.
2. Xvatsev M.E. Logopediya asoslari. — Moskva: Prosveshcheniye, 1959.
3. Semenova K.A. Bolalarda markaziy nerv tizimi shikastlanishlari va nutq buzilishlari. — Moskva, 1968.
4. Pravdina O.V. Dizartriya va uni korreksiyalash usullari. — Moskva: Pedagogika, 1973.
5. Danilova L.A. Nutq motorikasining buzilishlari. — Moskva, 1977.
6. Mastyukova Ye.M. Dizartriya bolalar bilan logopedik ishlar tizimi. — Moskva: Prosveshcheniye, 1977.